

Qoraqalpog‘iston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 589 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 75 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 514 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 2 425,7 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 118,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 142,4 mlrd so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 2,3 marta oshgan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 283,3 mlrd so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 115,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 390,0 mlrd so‘mni (o‘shir sur‘ati 153,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘shir sur‘ati (% da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 587 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 582 tani tashkil qildi.

Respublika bo'yicha 2026- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 970,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 928,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 % ga to'g'ri keldi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,7 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Nukus shahrida (3,9 marta oshgan) va Taxiatosh tumanida (75,8%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 112 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 111 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 887,1 mlrd so'mni tashkil qildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 116,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)